



## XALQ DEPUTATLARI RISHTON TUMAN KENGASHI

# QARORI

2023 - yil 9 - fevral

VI-51-21-11-158-K/23

Rishton tumani hokimligi

### **Rishton tumanida 2022 yil davomida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘lar to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 avgustdagi “Byudjet ma‘lumotlarining ochiqligini va byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3917-sonli va 2021 yil 13 apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli Qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021 yil 22 apreldagi “Mahalliy byudjet mablag‘lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta‘minlash to‘g‘risida” gi KQ-213-IV-sonli Qarori ijrosi yuzasidan tuman moliya bo‘limi tomonidan Rishton tumanida 2022 yil davomida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘lar bo‘yicha tegishli xujjatlar xalq deputatlari tuman Kengashiga taqdim etilgan.

Sessiya kun tartibiga kiritilgan masalani muhokamasidan va deputatlar tomonidan bildirilgan takliflardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunini 6 va 24 moddalariga muvofiq xalq deputatlari Rishton tuman Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. Xalq deputatlari Rishton tuman Kengashining 2022 yil 7 fevraldagi “Rishton tumanida maxalliy byudjet mablag‘lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta‘minlash to‘g‘risida”gi VI-34-14-11-158-K/22-sonli qarori bilan tasdiqlangan namunaviy Nizomning 27-bandiga asosan 2022 yilda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘lar yuzasidan tuman hokimligi moliya bo‘limi mudiri I.Djurayevning hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

## 2. Mazkur qaror bilan quyidagilar:

2.1- 2022 yil davomida “Tashabbusli byudjetlashtirish” jarayoni natijalari bo‘yicha ma’lumotlar 1 va 2 ilovaga muvofiq;

2.2- 2022 yil davomida “Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasi mablag‘larining shakllanishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar 3-ilovaga muvofiq;

2.3- 2022 yil davomida “Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasidan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g‘olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi moliya bo‘limi (I.Djurayev), Mahalla va oilani qo‘llab quvatlash bo‘limi (X.Xojixonov), Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi (M.Alijonov) hamda mahalla fuqarolari yig‘inlari bilan birgalikda 2023 yil davomida o‘tkaziladigan “Tashabbusli byudjetlashtirish” jarayoniga keng jamoatchilikni jalb etish, ularni faolligini oshirish bo‘yicha targ‘ibot ishlarini olib borishni tashkillasin.

4. Tuman hokimligi moliya bo‘limi (I.Djurayev), tuman hokimligi axborot xizmati (A.Dexqonov) gi, “Tashabbusli byudjetlashtirish” natijalari bo‘yicha ma’lumotlarni keltirilgan ilovalarga muvofiq shakllarda “Ochiq byudjet” axborot portali hamda hokimlikning rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borish vazifalari yuklatilsin.

5. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining 1-o‘rinbosari A.Mustafaqulov va xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (D.Raxmonqulov)ga yuklatilsin.

**Tuman hokimi**



**С.Солнев**

Xalq deputatlari Rishton tuman  
Kengashining  
2023 yil 9 fevraldagi  
VI-51-21-11-158-K/23-son  
qaroriga  
1-ilova

**Tashabbusli byudjetlashtirish natijalari bo'yicha**

T/r	Ko'rsatkich nomi	Summa
		(ming so'm)
1	Yil boshiga qoldiq	397 691,8
2	<a href="#">Fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga o'tkazilgan mablag'lar*</a>	19 999 923,0
3	<a href="#">Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g'olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar**</a>	19 979 055,0
3.1.	Tadbirlarni amalga oshirayotgan pudratchi tashkilotlarga bajarilgan ishlar uchun to'langan mablag'lar	16 225 269,3
3.2.	Tadbirlarni moliyalashtirishga ajratilgan, biroq pudratchi tashkilotlarga to'lab berilmagan qoldiq mablag'lar	3 039 079,1
4	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasidagi qoldiq mablag'lar	1 133 266,4

Xalq deputatlari Rishton tuman  
Kengashining  
2023 yil 9 fevraldagi  
VI-51-21-11-158-K/23-son  
qaroriga  
2-ilova

## Tashabbusli byudjetlashtirish natijalari bo'yicha

ming.so'm

T/r	Bajarilgan tadbirlar nomi	Moliyalashtirilgan takliflar soni	ko'rsatkichlar		
			o'lchov birligi	miqdori	sarflangan mablag'lar
1	Hududiy ichki yo'llar	2	umumiy uzunligi	7999	2 198 000
2	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash	9	soni	9	7 605 055
3	Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash		soni		
4	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	1	soni	1	750 000
5	Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	1	soni	1	400 000
6	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash		umumiy uzunligi		
7	Ko'cha chiroqlarini o'rnatish		chiroqlar soni		
8	Obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish	8	tadbirlar soni	8	7 946 000
9	Boshqa tadbirlar	1	soni	1	1 080 000
<b>jami</b>		<b>22</b>	<b>X</b>	<b>X</b>	<b>19 979 055</b>

Xalq deputatlari Rishton tuman  
Kengashining  
2023 yil 9 fevraldagi  
VI-51-21-11-158-K/23-son  
qaroriga  
3-ilova

**Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirilishi yuzasidan**

ming,so'm

T/r	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga yo'naltirilishi lozim bo'lgan mablag'lar				Fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga haqiqatda o'tkazilgan mablag'lar	Farqi	Izoh	
		1-chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak				
1	Tuman (shahar) byudjetining tasdiqlangan umumiy xarajatlarining 5 foiz qismi miqdorida ajratiladigan mablag'lar	4 944 434,0	4 944 434,0			9 888 868,0	0,0		
2	Tuman (shahar) byudjetining qo'shimcha manbalarining 30 foizi miqdorida ajratiladigan mablag'lar	697 000,0	2 789 055,0	823 000,0	5 802 000,0	10 111 055,0	0,0		
2.1.	Shu jumladan	erkin qoldiq mablag'lari	697 000,0			697 000,0	0,0		
2.2.		daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi		404 000,0	823 000,0	482 000,0	1 709 000,0	0,0	
2.3.		davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar						0,0	
2.4.		elektron savdo maydonchasida yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni sotishdan tushgan mablag'lar						0,0	
2.5.		O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.04.2022 yil kungi PQ-197 qaroriga hamda 25.10.2022 yil kungi PQ-409 qaroriga asosan Respublika byudjetidan ajratilgan mablag'lar		2 385 055,0		5 320 000,0	7 705 055,0	0,0	
3	<b>Jami ajratiladigan mablag'lar</b>	<b>5 641 434,0</b>	<b>7 733 489,0</b>	<b>823 000,0</b>	<b>5 802 000,0</b>	<b>19 999 923,0</b>	<b>0,0</b>		

**Xalq deputatlari Rishton tuman  
Kengashining  
2023 yil 9 fevraldagi  
VI-51-21-11-158-K/23-son  
qaroriga  
4-ilovala**

**Fuqarolar tashabbusi jamg'armasidan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g'olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar yuzasidan**

T/r	Tadbirning xos raqami (ID)	Jami to'plangan ovozlar soni	shundan			Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)	Tadbirning moliyalashtirilishi (ming so'm)						
			onlayn ovozlar	oflayn ovozlar	SMS orqali		Tadbirni moliyalashtirish uchun ochilgan hisobvaraqlar	Tadbirning fuqaro tomonidan kiritilgan dastlabki qiymati	Tadbirni amalga oshirish qiymati	Ajratilgan mablag'lar	Bajarilgan ishlar uchun to'lab berilgan mablag'lar	Iqtisod qilinish, jamg'armaga qaytarilgan mablag'	Qoldiq mablag'lar
<b>2022 yil 1-mavsum</b>													
1	1470400193	10 312	1 200	0	9 112	Rishton tumani Bo'joy qishlog'ida taxminan 9 yildan buyon tabiiy gaz mavjud emas. Shu yillar oralig'ida aholi qish mavsumida soviqdan ko'plab aziyat chekmoqda. Xususan aholi qo'lbola pechkalarda o'tin va ko'mir yoqish xisobiga is gazidan zaxarlanish xavfi mavjud. Shuningdek gaz balonlaridan uyni istish maqsadida foydalanilayotgan fuqarolar ham yoq emas. Buni odamlar majburlikdan qilyotganligini eslatib o'taman. Bu bir necha oilalarda fojia bilan tugagan holatlar ham mavjud. Axoli nomidan tabiiy gaz keltirilishi so'rayman	401722860302247011204018001	1 080 000	1 080 000	1 080 000	979 312	51 635	49 053
2	1470400039	6 966	258	0	6 708	Rishton tumani 58 -maktabini atrof devorini qayta qurish	401722860302247092100075013	700 000	700 000	700 000	676 515	23 485	-
3	1470400087	6 859	292	0	6 567	Bog'iston MFY infratuzilmasini yaxshilash	401722860302247045204110004	1 000 000	1 000 000	1 000 000	988 709	11 291	-
4	1470400032	6 829	576	0	6 253	Rishton tumani Jaxonobod MFY asfaltlashtirish	401722860302247045204110003	998 000	998 000	998 000	997 550	450	-
5	1470400095	6 812	142	0	6 670	"Chek-Jalayer" MFY Tolzor va Yuksalish ko'chalariga 2 ta 250 kVA bo'lgan TP hamda 1,0 km yangi elektr tarmog'i (tayanch ustunlar va yopiq kabel) tortish lozim.	401722860302247065200110005	450 000	450 000	450 000	444 215	5 785	-
6	1470400232	6 744	1 130	0	5 614	Rishton tumani Zohidjon qishlog'idagi Yuqumli kasalliklar shifoxonasini rekonstruksiya qilish	401722860302247073101054001	750 000	750 000	750 000	746 500	3 500	-
7	1470400216	6 652	990	0	5 662	Rishton tuman Kuyi-Avazboy MFY xududidagi Boymaxalla ko'chasiga, O'zbekiston 20 yilligi ko'chasiga, Avazboy ko'chasiga, Obod-turmush ko'chasiga, Yangi-avlod ko'chasiga, Yangi-Obod ko'chalariga 6 dona KTP 100 kVA bo'lgan transformator punkti o'rnatish va 1,5 km 10-0,4 kV elektr tarmog'i tortish hamda beton stolbalar o'rnatish ishlari uchun 950,0 mln.so'm mablag' ajratilishini so'rayman.	401722860302247065200110006	950 000	596 000	596 000	593 825	2 175	-
8	1470400030	6 618	937	0	5 681	Rishton tumani 32-maktab atrofini o'rab turgan devor nura eskirib yaroqsiz xolga kelib qolgan va maktab o'quvchilari va xodimlari xayotiga xavf solayotgani uchun devorni yangilash hamda maktab kiraverishida nazorat punkti binosi zarur bundan tashqari 1978-yilda qurilgan maktab binosidagi 8 ta xonaning ichki isitish tizimini, o't yoqish qozonxonalari yangilash zarur.  Shu bilan birga maktab o'quvchilari, xodimlari ovqatlanishi uchun zamonaviy oshxonaga kerak	401722860302247092100075015	800 000	800 000	800 000	784 000	16 000	-
9	1470400011	6 018	23	0	5 995	14 maktab 1974 yil qurilgan bolib hozirda eshik va romlari almashtirishga muhtoj	401722860302247092100075017	500 000	500 000	500 000	479 200	20 801	-
10	1470400222	4 908	73	0	4 835	2 IDUMni yotoqxonasini rekonstruksiya qilish issiqlik tizimini gayta qurish mebellarni yangilash	401722860302247092100075019	980 000	980 000	980 000	973 384	6 616	-
11	1470400158	2 218	3	0	2 215	Rishton tuman davlat arxivida saqlanayotgan Milliy arxiv fondi tarkibiga kiruvchi 100 yildan ziyod tarixni o'zida mujassam etgan hujjatlarga zarar yetishini oldini olish, belgilangan me'yoriy talablar asosida saqlovni tashkil etish va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlarni kelajak avlodga bus-butun yetkazish, saqlov xonalarda xona haroratini mo'tadil holatda bo'lishni taminlash maqsadida Rishton tuman davlat arxivini qayta rekonstruksiya qilish zarur.	401722860302247013300065001	400 000	400 000	400 000	394 235	5 765	-
12	1470400124	2 193	106	0	2 087	O'zbekiston Respublikasi Prezidentini 2021-yil 13-apreldagi PQ-5072-son "Budjed jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini taminlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq Rishton tumani XTB tasarrufidagi 30-IDUM'dagi mavjud 640 o'ringa mo'ljallangan o'quv xonalari hamda manan eskirgan jami 126(bir yuz yigirma olti) dona (taxta) deraza romlarini qiymati 289 (ikki yuz sakkson to'qqiz) mln so'm, o'quv xonalari jami 31(o'ttiz bir) dona fortochka qiymati 1 mln 555 ming so'm mablag' evaziga akfa romlariga alishtirib berishga, o'quv xonalari jami mavjud 39(o'ttiz to'qqiz) dona (taxta) eshiklarni qiymati 214 mln 500 ming so'm evaziga MDF eshiklariga umumiy qiymati 505mln 55 ming so'm evaziga Jamoatchilik fikri asosida moliyalashtirishga amaliy yordam so'raymiz	401722860302247092100075021	505 055	505 055	505 055	487 373	17 682	-
<b>2022 yil 2-mavsum</b>													

1	1470600041	10 414	0	0	10 414	Oqtmir MFY Obixayot ko'chasiga 2 dona quduqdan oqava suv chiqarish. Bog'iston Oqtmir magistral oqava suv tarmog'ini tortish uchun mablag' kerak.	401722860302247049801170001	1 200 000	1 200 000	1 200 000	1 121 096		78 904
2	1470600154	10 400	0	0	10 400	To'raobod MFY ning TINCHLIK KO'CHASI 1 200 METR, YANGIOBOD 700 METR, NAVRUZ KO'CHASI 790 METR BA YANGI ASR KO'CHASI 1 000 METR JAMI 3 690 METR KO'CHA SHAG'ALLASHTRILIB ASTFALLASHTRISHGA TAYYORLAB QO'YILGAN. ASTFALLASHTRIRIB BERISHINGIZ SO'RAYMIZ	401722860302247045204118001	1 200 000	1 200 000	1 200 000	745 363	43 703	410 934
3	1470600030	10 322	0	0	10 322	Bog'iston MFY'dagi 52-umumta'lim maktabini ta'mirlash uchun. Maktab 1991 yil qurilgan bo'lib, biror marta ham kop.remontga qilmagan. Shamolda derazalari ochilib ketayapti. Bu esa o'quvchilarga xavf tug'dirmoqda. Shuning uchun, eshik-romlarini zamonaviysiga almashtirish zarur.	401722860302247092100075022	1 200 000	1 100 000	1 100 000	865 952	88 238	145 810
4	1470600084	10 318	0	0	10 318	Jalayer MFY xududida joylashgan qabriston atrof devorlari aylana xududini 2550 metrni yangilash	401722860302247065400110001	1 200 000	1 200 000	1 200 000	1 157 836	42 164	-
5	1470600033	10 306	0	0	10 306	«Qoshqayron» MFY hududida aholi soni ortib borayotganligi, natijada elektr ta'minoti uchun ehtiyoj ortib borayotganligi natijasida elektr kuchlanishi juda past. Shu sababli, «Qoshqayron» MFY hududida elektr ta'minotini yaxshilash uchun 220 dona beton tayan ustunlar o'rnatish, 8 km zamonaviy yopiq kabel tortish hamda har bir ko'chaga alohida 6 dona mini TP lar o'rnatish lozim.	401722860302247049801280001	1 200 000	1 200 000	1 200 000	785 787	22 632	391 581
6	1470400097	9 837	0	0	9 837	Rishton tuman Voxim MFY yashovchi axolini elektr ta'minotini yaxshilash maqsadida 3 dona 160 kVA bo'lgan yangi transformator xamda 3.0 km masofaga yangi elektr tarmog'ini tortish (yopiq kabel) uchun mablag' ajratish kerak.	401722860302247049801280002	1 100 000	1 100 000	1 100 000	174 323	27 018	898 659
7	1470400008	5 856	0	0	5 856	Rishton tumani Bo'jay qishlog'ida joylashgan 4-IDUM 1970 yilda qurilgan, ta'mirlab holatda. Shu sababli maktabimizni eskirgan eshik romlarini yangilash kerak.	401722860302247092100075023	1 200 000	920 000	920 000	690 882	57 529	171 589
8	1470400099	5 090	0	0	5 090	Rishton tuman Zohidon MFY Zoxidon ko'chasidagi mavjud yer ostidagi 4,5 km uzunlikda gaz quvuri yaroqsiz xolga kelganligi sababli mukammal ta'mirlash va yer ustidan qaytadan tortish. Jumladan Zohidon ko'chasini xar ikki tomonidan 2,225 km.dan jami 4,5 km.	401722860302247049801280003	1 200 000	1 200 000	1 200 000	881 268	136 107	182 625
9	1470400032	3 019	0	0	3 019	Rishton tumani XTB tasarrufidagi 29 maktab 1976 yilda qurilgan.Hozirgi kunda maktabning eshik va romlari yaroqsiz holga kelib qolganligi sababli 100 eshikni zamonaviy MDF eshikka 200 ta drezani esa zamonaviy AKFA romlariga almashtirish zarur.	401722860302247092100075024	1 200 000	1 200 000	1 200 000	390 289	99 967	709 745
10	1470400031	3 009	0	0	3 009	Rishton tumanidagi 40-ujumiy o'rta ta'lim maktabida mavjud bo'lgan eskigan eshik romlarni yangi alyumiy profildagi eshik romlarga almashtirish.	401722860302247092100075025	850 000	900 000	900 000	867 657	32 163	181
<b>Jami:</b>								<b>20 663 055</b>	<b>19 979 055</b>	<b>19 979 055</b>	<b>16 225 269</b>	<b>714 707</b>	<b>3 039 079</b>